



MAQSUD SHAYXZODANING BOLALIK DAMLARI

Mamurova Feruza Islomovna

Abdisaidov Nodirbek

Toshkent davlat transport universiteti

<https://doi.org/10.5281/zenodo.12158671>

Abstract: In this article, the childhood days of Maqsud Sheikhzadeh, who dedicated his life to the science of poetry, as well as the steps he took on the path to the science of poetry, are briefly considered.

Key words: a child of two countries, a connoisseur of poetry, his creative struggles

Аннотация: В данной статье кратко рассмотрены детские годы Максуда Шейхзаде, посвятившего свою жизнь науке о поэзии, а также шаги, которые он сделал на пути к науке о поэзии.

Ключевые слова: дитя двух стран, ценитель поэзии, его творческая борьба.

Anotatsiya: Ushbu maqolada she'riyat ilmiga o'z hayotini bag'ishlagan, Maqsud Shayxzodaning bolalik damlari hammda uning she'riyat ilmi yo'lida bosib o'tgan qadamlarini bir sar hisob qilib o'tiladi.

Kalit so'zlar: ikki el farzandi, she'riyat oshnosi, ijod yo'lidagi mashaqatlari

Hozirgi dunyoda o'zbek tili ahamiyati haqida turli xil bahslar va munozaralar ko'paygan. Bizning jonajon O'zbekistonimizda ko'p millatli aholi yashab istiqomat qilib keladi. Ular orasida albatta o'zbek tilini o'z ona tilidagidek bildiganlar ham yuq emas. Shu bilan birga, butun umrini shu makonda yashab o'tkazayotgan bo'lsada, oddiy kundalik ishlatiladigan so'zlarni tushinmaydigalar ham topiladi. Balki o'zbek tili murakabliklik qilar, ammo yaqin o'timishimizda shunday zot yashab o'tganki u nafaqat o'zbek, ozarbayjon tilarini bilibgina qolmasdan u bu ikki tilda bir biridan yorqin asarlari, she'rlari bilan bu ikki millat halqini yuragidan chuqur joy olgan. Unga kim ekan deb qiziqayotgan bo'lsangiz u Maqsud Shayxzoda. Albatta, ko'pchilik bu inson haqida yaxshi biladi. Katta ehtimol bilan uning she'rlarini, asarlarini siz ham o'qigansiz. 1908-yilda Ozarbayjonning Oqtosh shahrida tavallud topib, Bokudagi oliy pedagogika institutida o'qigan, ijodga va adabiyotga bag'ishlagan umrining asosiy qismini esa O'zbekiston diyorida – Toshkentda o'tkazgan ijodkor haqida ko'plab yozuvchilarimizning asarlarida juda iliq fikrlar yozib qoldirilgan. Eng e'tiborli jihati, u o'zi ozarbayjon millatiga mansub bo'lsa-da, o'zbek tilida ijod qilib, shu til rivojiga hissa qo'shgan. O'zini Ozarbayjon va O'zbekiston farzandi deb his





qilish baxti, ikki el nazariga ham tushishdek ulkan sharaf uninggina peshonasiga yozilgan bo'lsa kerak.

Ha, bu siz va biz yoshligimizdan adabiyot orqali yaxshi tanigan «Jaloliddin Manguberdi» dramasi, “Mirzo Ulug‘bek” tragediyasi, “Toshkentnoma” dostoni muallifi Maqsud Shayxzodadir. O‘zbek adabiyotining atoqli namoyandalaridan biri, mashhur shoir, zabardast dramaturg, adabiyotshunos olim va tarjimon Maqsud Shayxzoda 1908-yil 25-oktabrda Ozarboyjonning Oqtosh shahrida tavallud topdi. Boshlang‘ich va o‘rta ma‘lumotni Oqtoshda olgach, Boku Oliy pedagogika institutida sirdan o‘qidi va 1925-yildan boshlab Derkend shahrida muallimlik bilan shug‘ullandi. Iste‘dod uchquni, surgun sabablari va ilk faoliyat: Ozarbayjonlik jurnalist Gulu Kengerlining “Unutilmagan o‘tmish tarixga aylanadi” kitobida yozilishicha, Maqsud ota-onasining to‘ng‘ich farzandi bo‘lgan. Oilasida undan so‘ng yana to‘rt farzand dunyoga kelgan. Otasi Masim ota adabiyot va she‘riyatga nihoyatda qiziqadigan inson bo‘lib, kasbi shifokor bo‘lgan. Shayxzodaga adabiyotga qiziqish ham otasidan o‘tgan. U 12 yoshidanoq o‘z ijodini boshlagan. Ilk saboqni Oqtoshdagi “Rushdiya” maktabida olgan. Maktabda u o‘z she‘rlarini o‘qib, ustozlari va kelgan mehmonlarning e‘tiboriga tushadi. Hattoki, she‘rlari gazetalarda ham chop etilib, maktab direktori uning ota-onasini chaqirib, Maqsudning yanada kengroq ta‘lim olishi uchun Bokuga yuborishni maslahat beradi. Keyinchalik u Bokudagi pedagogika institutiga o‘qishga kiradi. Bu yerda kengroq adabiy muhit ta‘sirida bo‘ladi, o‘z davrining ziyolilaridan saboq oladi. Oliyohda sirdan tahsil olgani bois, Darband shahrida muallimlik qilib, muntazam ziyoli insonlar bilan muloqotda bo‘ladi va sovet mafkurasining chirkinligini anglab yetadi. Unga qarshi kurashadi.

1927-yilda Maqsud Shayxzoda va uning do‘stlari aksilinqilobiy harakati uchun qamoqqa olinadi. Sud qaroriga ko‘ra, u Moskva, Tbilisi va Bokudan boshqa istalgan shaharida surgun muddatini o‘tashi mumkin edi. Maxachqal‘adagi 9 oylik qamoqdan ozod qilingan Maqsud otasining istagi bilan Toshkentni tanlaydi. Chunki otasi Moskvada o‘qigan paytlari Toshkentda yashayotgan Posho G‘aniyev va Sobir Sharipov kabi asli ozarbayjonlik tanishlar orttirgan edi va otasi biror yordam kerak bo‘lsa o‘g‘lining ularga murojaat qilishini aytadi. Maqsud Shayxzoda 1928-yil fevral oyida Toshkentga keladi. Avvaliga ozarbayjonlik tanishlarining uyida yashaydi, keyinchalik esa shoir Dadakishiyning uyida ijarada turadi. Bir yil ichida o‘zbek tilini yaxshi o‘zlashtirib olgach, o‘zbek maktablarida dars berishni boshlaydi. Bu orada O‘rta Osiyo davlat universitetining sharqshunoslik fakultetiga ham o‘qishga kiradi va faoliyati





ancha kengayadi. O'ziga bir qancha do'stlar, hamfikrlar topadi. Kelgusida katta yozuvchilar qatoridan joy olajak G'afur G'ulom, Oybek, Abdulla Qodiriy, Abdulla Qahhor singari yoshlar bilan tanishib oladi. Bir oz vaqt "Qizil O'zbekiston", "Sharq haqiqati" va "Yosh Leninchi" gazetalarida ishlaydi. Keyinchalik aspiranturada o'qishni davom ettirib, Til va adabiyot institutida ilmiy xodim bo'lib ishlaydi. 1932-yilda shoirning "Loyiq soqchi", "O'n she'r", 1933-yilda "Uchinchi kitob", "Undoshlarim", 1935-yilda "Respublika", 1937-yilda "Yangi davron", "O'n ikki", 1938-yilda "Bayram qo'shiqlari", 1948-yilda "Vatan she'rlari" kitoblari chop etiladi. 1938-yildan e'tiboran, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universitetida dars berishni boshlaydi. Urushdan keyingi qurilish yillarida qatag'onlik jabrini tortgan bo'lsa ham, o'z el-yurtiga fidoyi shoir Vatanimiz bo'ylab keng quloqch yozgan zafarli mehnat, tinchlik uchun kurash haqida "O'n besh yilning daftari", "Olqishlarim", "Zamon torlari", "Shu'la", "Chorak asr devoni" kabi she'riy to'plamlarini yaratadi. 1958-yili adibning ko'hna va ayni chog'da navqiron Toshkent shahriga bag'ishlangan, uning tarixi, o'tmishdagi madaniyat va xalqaro aloqalarini tasvirlovchi "Toshkentnoma" lirik dostoni yaratildi.

Iste'dodli dramaturg 1960-yilda yozgan "Mirzo Ulug'bek" tragediyasida buyuk o'zbek munajjimi va ma'rifatparvar podshosi obrazini yaratdi. Shayxzoda Pushkinning "Mis chavandoz", Lermontovning "Kavkaz asiri", Mayakovskiyning "Juda soz" dostonlari va ko'plab she'rlarini, Shekspirning "Hamlet", "Romeo va Juletta" tragediyalari va sonetlarini, Nozim Hikmatning she'rlarini, ozarboyjon shoirlari asarlarini o'zbek tiliga ag'dardi. Shayxzodaning o'zbek adabiyoti tarixi, o'zbek xalq og'zaki ijodiyoti, xususan, Alisher Navoiy ijodini tadqiq etish borasida yaratgan ilmiy ishlari ham tahsinga sazovordir. U filologiya fanlari nomzodi, dotsent ham edi. Shayxzoda asarlari qardosh xalqlar va xorijiy tillarga tarjima qilingan.

Shayxzoda haqidagi xotiralar: O'zbekiston qahramoni Ozod Sharofiddinov Maqsud Shayxzodaga bag'ishlangan "Adabiyotimiz fidoyisi" maqolasida yozadi: "O'rta bo'yli, miqti gavdalik, jingalak sochlari qandaydir shoirona tarzda to'zg'igan, o'zbekcha so'zlarni ozarbayjoncha shirin ohangda talaffuz etadigan bu odam – Shayxzoda Maqsud edi. Biz uni yaqindan birinchi marta ko'rib turgan bo'lsak-da, uning dovru'gi allaqachon o'zi ishlaydigan Nizomiy nomidagi pedagogika instituti hududlaridan chiqib, butun O'zbekistonga taralgan edi. Uning ma'ruzalari to'g'risida talabalar orasida rivoyatlar yurardi.





“Genial san’atkor” degan kitobni hijjalab o’qib chiqqan edim. Kitob lotincha yozuvda chop etilgan bo’lib, 40-yillarning boshlanishida Alisher Navoiy to’g’risida mavjud bo’lgan to’rtta tanqidiy asarning bittasi edi. Juda zo’r zukkolik bilan yozilgan bu risola Alisher Navoiyga shu qadar muhabbat bilan sug’orilgan ediki, uni o’qigan har qanday odam Navoiy dahosini o’z qalbi bilan his qilib, uning mo’jizakor san’atiga umrbod ko’ngil qo’yib qolmasligi mumkin emasdi”.

Shukur Burhonov: “Shayx aka mukammal hayotni yashab o’tdi. Bu hayot yillar, asrlar o’tsa-da, o’rnak qilib ko’rsatilaveradi. U hamma bilan samimiy munosabatda bo’lardi. O’zi ham kelishgan, juda salobatli odam edi. Har doim to’g’ri gapirar, ko’pincha uning gaplarida albatta nimadir yashirin ma’no kasb etardi. Maqsud muallimlik qilar, tahririyatda ishlar, she’rlar yozardi. Biz uning har qanday odam bilan tez til topishib keta olishiga havas qilardik. Uning suhbatlarida ayri-ayri bir falsafa bor edi. Kichik o’g’limga ham Shavkat deb uning o’zi ism qo’ygandi”. Ammo keyinchalik Shayxzodaning “Jaloliddin Manguberdi” asaridagi qahramoni salbiy gruzin obrazida go’yoki Stalinni va gruzin xalqini nazarda tutgan degan iddaolar bilan 25 yilga Sibirga surgun qilishadi. 1952-yilda Stalin vafotidan keyin Shayxzodaning onasi SSSR Oliy soveti Rayosat kengashiga o’g’lining avf etilishini so’rab, gunohsiz ekanini isbotlab qator maktublar yo’llaydi. Shundoq ham gunohsiz ekanini bilgan imperiya jallodlari Shayxzodani jazo muddatining uchdan bir qismini o’tab bo’lgach Toshkentga qaytarib yuboradi. Do’stlarining ko’pchiligi Shayxzodagi salom bermay qo’yishadi. Undan imkon qadar o’zlarini olib qochishadi. Shoir bundan ma’nan aziyat chekadi. Shu bilan birga, ijod qilishda ham davom etadi. Chala qolgan “Ulug’bek xazinasini” tragediyasini yakunlaydi. Asar asosida o’zbek rejissori Latif Fayziyev 1958-yilda “Ulug’bek yulduzi” filmi suratga oladi. Film katta shuhrat qozonadi. Bundan tashqari “Toshkentnoma” dostonini ham yozadi. Shu tariqa shoirning avvalgi mavqei tiklanadi.

Akademik Naim Karimovning yozishicha, surgundan xastalanib qaytgan shoir vaqti-vaqti bilan davolanishga majbur bo’ladi. Uzoq vaqt “Abu Rayhon Beruniy” asari ustida ter to’ksa-da, ajal bu ishni tugatishiga imkon bermaydi. Ustozlarga savollar nega yozma yo’llangan edi? Maqsud Shayxzoda bilan birga saboq olgan yozuvchi va tarjimon Mirzakalon Ismoilov o’z xotiralarida shunday yozadi: “Maqsud o’zbek tilida ozariy lahjada gapirardi. Ozar va turk so’zlaridan faol foydalanardi. U chuqur savodi va insoniy fazilatlar uchun talabalar orasida katta hurmat qozongandi. Maqsud havas va ehtirom bilan o’zbek tili, tarixi, sharq madaniyatini o’rgangan edi. Darslar tugashi bilan ertangi kunga tayyorlana boshlar, kitob o’qir, konspekt yozar, keyingi mavzular bilan bog’liq





kitoblarni titkilar, muallimlarga savollar hozirlardi. U savollarni o'qituvchilarga yozma tarzda berar, bu esa domlamiz Muxtor Avezovga maroqli edi. Maqsud nima uchun savollarini yozma tarzda berishining sababini bilgach, domlamiz lol qolgandi. Maqsud muallim savolning javobini bilmasa, boshqa talabalar qarshisida noqulay vaziyatda qolmasin uchun savollarni yozma tarzda berarkan."

Jurnalist Gulu Kengerlining "Unutilmagan o'tmish tarixga aylanadi" asarida yana quyidagi ma'lumotlar keltiriladi: Maqsud Shayxzoda talabalarga hamisha yordam bergan. Qaysidir talabaning kiyimi eskirganini, paltosi yoki telpagi yo'qligini ko'rsa, albatta qo'liga 50 yo 100 so'm tutqazib sigaretga yuborardi. Talaba sigaret olib unga keltirganida, domla qaytimini olmas, "borib o'zingga biron kiyim olgin" derdi. 1967-yil adib Toshkentdagi kasalxonada vafot etadi. U Toshkentning Forobiy qabristonida dafn etilgan.


"Abu Rayxon Beruniy" asarining chala qo'lyozmasi esa kasalxonada yo'qoladi. O'zidan kichiklar "Shayx aka", kattalar "Shayx" deb atagan Maqsud Shayxzodaning umr daftari shu tariqa o'z yakuniga yetadi.

Ammo buyuk olim, o'zbek tili kuychisi va fidoyisi bo'lgan Shayxzoda ijodiga hurmat mudom har bir o'zbek ijodkori va farzandi qalbida yashaydi. Uning vafotidan keyin ham tomlik asarlari chop etildi. Birinchi prezidentimiz Islom Karimov farmoni bilan adib "Buyuk xizmatlari uchun" ordeni bilan mukofotlandi.

O'zbekiston xalq yozuvchisi Shukrullo Shayxzodani "O'zbek adabiyotining Shekspiri" deb atagan edi. Zero, uning o'zbek tili uchun qilgan buyuk xizmatlari – o'zbek asarlarini ozar tiliga, rus va ozar tilidagi asarlarni o'zbek tiliga qilgan tarjimalari, o'zbekcha nasriy asarlari, she'rlari va dostonlari bu ta'rifga to'la loyiq. Maqsud Shayxzoda siymosi O'zbekiston va Ozarbayjon xalqlari uchun do'stlik, birodarlik, ma'rifat, ma'naviyat, ezgulik ramzi bo'lib kelmoqda va bundan keyin ham shunday bo'lib qolaveradi.


Foydalangan adabiyotlar:

1. Adabiyotga e'tibor – ma'naviyatga, kelajakka e'tibor .I.A.Karimov; O'zbekiston-2009
2. Naim Karimov "Maqsud Shayxzoda" tarixiy-bibliografik roman.- Toshkent,"Sharq", 2009-yil
3. Mamurova, F. I. (2021, May). ARTIST OF UZBEKISTAN MAKSUD SHEIKHZADE. In E-Conference Globe (pp. 176-178).
4. Mamurova, F. I., & ugli Abdubahabov, A. A. (2023). TWO FOLK POETS. "TRENDS OF MODERN SCIENCE AND PRACTICE", 1(3), 23-30.





5. Islomovna, M. F., & Abduvohob o'g'li, A. A. (2023, January). Maqsud Shayxzodaning Hayoti Va Ijodi. In Interdisciplinary Conference of Young Scholars in Social Sciences (USA) (pp. 19-20).
6. Mamurova, F. I. (2021, May). ARTIST OF UZBEKISTAN MAKSUD SHEIKHZADE. In E-Conference Globe (pp. 176-178).
7. Islamovna, Mamurova Feruza. "MAQSUD SHAYKHZADEH-TWO FOLK DILBANDI." INTERNATIONAL CONFERENCE ON MODERN DEVELOPMENT OF PEDAGOGY AND LINGUISTICS. Vol. 1. No. 1. 2024.
8. Islamovna, M. F. (2024, January). MAQSUD SHAYKHZADEH-TWO FOLK DILBANDI. In INTERNATIONAL CONFERENCE ON MODERN DEVELOPMENT OF PEDAGOGY AND LINGUISTICS (Vol. 1, No. 1, pp. 189-192).
9. Islomovna, M. F. (2024). O 'ZBEK ADABIYOTINING ATOQLI NAMOYANDALARIDAN BIRI MAQSUD SHAYXZODNING "JALOLIDDIN MANGUBERDI" ASARI. Yangi O'zbekistonda Tabiiy va Ijtimoiy-gumanitar fanlar respublika ilmiy amaliy konferensiyasi, 2(1), 89-92.
10. Islamovna, M. F. (2024). THE CREATION OF MAQSUD SHAYKHZODA-AS A GOLDEN LEGACY. " XXI ASRDA INNOVATSION TEXNOLOGIYALAR, FAN VA TA'LIM TARAQQIYOTIDAGI DOLZARB MUAMMOLAR" nomli respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi, 2(1), 90-93.
11. Мамурова Ф.И. и Дурдона О. (апрель 2024 г.). МАКСУД ШАЙХЗОДАНИНГ «МИРЗО УЛУГБЕК»АСАРИ ТАЛИЛИ. В Международной глобальной конференции (Том 1, № 6, стр. 79-81).
12. Durдона, O., & Mamurova, F. I. (2024, April). MAQSUD SHAYXZODA "TOSHKENTNOMA". In International Global Conference (Vol. 1, No. 5, pp. 148-152).
13. Mamurova, F., & Obutjonova, D. (2024). MAQSUD SHAYXZODANING "JALOLIDDIN MANGUBERDI" DRAMASINING YOZILISH TARIXI VA VATANGA BO'LGAN MUHABBATI, JASORATINING IFODALANISHI. Академические исследования в современной науке, 3(12), 13-16.
14. Mamurova, F., & Obutjonova, D. (2024). DESCRIBING MAKSUD SHAIKZODA. Current approaches and new research in modern sciences, 3(4), 5-8.
15. Durдона, O., & Islamovna, M. F. (2024, March). SHAYXZODA SIYMOSIGA TA'RIF. In International Global Conference (Vol. 1, No. 1, pp. 188-191).
16. Mamurova, F., & Qodirov, I. (2024). MAQSUD SHAYXZODANING "TOSHKENTNOMA"-SHUKRONALIK DOSTONI. Молодые ученые, 2(6), 87-89.





17. Islamovna, M. F. (2024). THE PLACE OF MAKSUD SHEIKZODA'S LIFE AND CREATION IN UZBEK NATIONAL LITERATURE. МЕДИЦИНА, ПЕДАГОГИКА И ТЕХНОЛОГИЯ: ТЕОРИЯ И ПРАКТИКА, 2(2), 471-474.

